ERKAK VA AYOLNING JAMIYAT, MADANIYAT VA TILDAGI O'RNI

Yarashova Mavluda Toxir qizi
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti 1-kurs magistranti
mavludayarashova05@gmail.com

Xudoyberdiyeva Ruxsora Eshboy qizi
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti 1-kurs magistranti
ruxsoralapasova9@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada erkak va ayolning jamiyat, madaniyat hamda tildagi örni lingvokulturologik nuqtayi nazardan tadqiq etiladi. Til va madaniyatning o'zaro munosabati, gender tushunchasining lingvistik talqini, shuningdek, erkak va ayollarning madaniyat, til va jamiyatda qay darajada namoyon bölishi tahlil etiladi. Tadqiqotda til nafaqat aloqa vositasi, balki jamiyatning tarixiy xotirasi, madaniy tajribasi va ijtimoiy munosabatlarini aks ettiruvchi muhim hodisa sifatida talqin qilinadi. Shuningdek, erkaklar va ayollar nutqidagi tafovutlar hamda nazariyalarni dalillovchi bir nechta olimlarning fikrlari va misollar keltiriladi. Ushbu maqolada gender tushunchasi lingvokulturologik jihatdan tadqiq etiladi.

Kalit söz: lingvokulturologiya, gender, gender lingvistikasi, til va madaniyat, erkak nutqi, ayol nutqi, jamiyat, madaniyat, tadqiqot, muloqot

Abstract: This article examines the role of men and women in society, culture, and language from a linguocultural perspective. It analyzes the interrelationship between language and culture, the linguistic interpretation of the concept of gender, and the extent to which men and women are represented within culture, language, and society. The study interprets language not merely as a means of communication, but as a significant phenomenon that reflects a society's historical memory, cultural experience, and social

relations. Furthermore, the article presents the views of various scholars and provides examples illustrating theories regarding differences in the speech of men and women. In this article, the concept of gender is explored from a linguocultural standpoint.

Key words: linguoculturology, gender, gender linguistics, language and culture, male speech, female speech, society, culture, research, communication

Аннотация: В статье рассматривается роль мужчин и женщин в обществе, культуре и языке с лингвокультурологической точки зрения. Анализируются взаимосвязь языка и культуры, лингвистическая интерпретация гендерных отношений, особенности культуры мужчин и женщин, а также формы их проявления в социуме. В работе обосновывается положение о том, что язык — это не просто средство общения, а значимый феномен, отражающий историческую память общества, а также его культурные и социальные связи. В статье представлен лингвокультурологический анализ гендерного компонента.

Ключевые слова: лингвокультурология, гендер, гендерная лингвистика, язык и культура, мужская речь, женская речь, общество, культура, исследование, коммуникация

KIRISH. Til insoniyatning ijtimoiy tajribasi, tarixiy xotirasi, milliy tafakkuri va madaniy qadriyatlarini o‘zida mujassam etuvchi murakkab ijtimoiy hodisadir. U nafaqat axborot almashish vositasi, balki muayyan xalqning dunyoqarashi, ijtimoiy munosabatlari va qadriyatlar tizimini namoyon etuvchi muhim madaniy mexanizm ham hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, erkak va ayolning jamiyatdagi mavqeyi, madaniyatdagi obrazi hamda tildagi ifodalanish xususiyatlarini o‘rganish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb yo‘nalishlaridan biridir.

Lingvokulturologiya til birliklarida aks etgan milliy-madaniy ma’nolarni, xalqning olam haqidagi tasavvurlarini va madaniy tajribasining lisoniy ifodasini o‘rganuvchi fan sifatida gender munosabatlarini tahlil qilish uchun muhim nazariy asos yaratadi.

Chunki erkak va ayol haqidagi tasavvurlar nafaqat biologik farqlar, balki tarixiy taraqqiyot, ijtimoiy muhit, urf-odatlar, tarbiya va madaniy me’yorlar ta’sirida ham

shakllanadi. Til jamiyatdagi qarashlar va munosabatlarni aks ettiruvchi muhim vositadir. Xalq maqollari, iboralar, badiiy asarlar va kundalik muloqot orqali erkak va ayol obrazlari namoyon bo‘ladi. Ayrim til birliklarida erkaklar kuch, jasorat va rahbarlik bilan, ayollar esa mehribonlik, g‘amxo‘rlik va oilaviy mas’uliyat bilan bog‘lanadi. Bunday tasavvurlar tarixiy-madaniy tajriba mahsuli bo‘lsa-da, ular barcha insonlarga bir xil darajada xos emas.

Asosiy qism. Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, til va madaniyatdagi gender tasavvurlarini o‘rganish orqali jamiyatda shakllangan ijtimoiy me’yorlar, an’analar va stereotiplarni chuqurroq anglash mumkin. Bundan tashqari, an’anaviy qadriyatlarni saqlagan holda, insonning qobiliyati va imkoniyatlarini jinsi bilan cheklamaslik masalasi ham bugungi kunda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Maqolaning maqsadi — erkak va ayollarning jamiyat, madaniyat va tildagi o‘rnini o‘zaro bog‘liq holda o‘rganish, gender stereotiplarining til vositasida ifodalanishini tahlil qilish hamda zamonaviy ijtimoiy jarayonlar ta’sirida yuz berayotgan o‘zgarishlarni yoritishdan iborat.

Jamiyat taraqqiyoti erkaklar va ayollarning bilimlari, qobiliyatlari, mehnati va o‘zaro hamkorligi bilan chambarchas bog‘liq. Tarixiy davrlarda mehnat taqsimoti, iqtisodiy sharoitlar va an’analar ta’sirida erkak hamda ayollarning vazifalari turlicha belgilangan. Biroq zamonaviy jamiyatda ta’lim olish, kasb tanlash, ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanish va rahbarlik lavozimlarida ishlash imkoniyatlari har ikki jins vakillari uchun muhim hisoblanadi. Erkak va ayolning vazifalarini qat’iy chegaralar bilan belgilashdan ko‘ra, ularning qobiliyati va sharoitiga mos imkoniyatlar yaratish muhimroqdir. Masalan, farzand tarbiyasida otaning faol ishtiroki ham, onaning kasbiy faoliyat bilan shug‘ullanishi ham oilaning rivojlanishiga xizmat qilishi mumkin. Bunda asosiy mezon jins emas, balki mas’uliyat, o‘zaro kelishuv va insonning imkoniyatlaridan oqilona foydalanishdir.

Madaniyat xalqning tarixiy xotirasi, urf-odatlari, an’analari, qadriyatlari, san’ati va turmush tarzini o‘zida mujassam etadi. Erkaklar va ayollar ushbu madaniy merosni yaratish, saqlash va keyingi avlodlarga yetkazishda muhim ishtirokchilardir. O‘zbek madaniyatida erkaklar or-nomusli ekanligi, Vatan uchun hamma narsaga tayyorligi, mehnatkashligi va shu bilan bir qatorda bir so‘zli va va’dasining ustida turishi kabi bir

qancha sifatlar bilan ajralib turadi. Hatto ularning kiyinish uslubi ham madaniyatimizdan darak beradi. Garchi hozirda ularning kiyinishi o‘zgarib borayotgan bo‘lsa ham, birgina erkak kishilarning boshga do‘ppi kiyishining o‘zigina o‘zbek madaniyatidan darak beradi. Ayollardagi oilaparvarlik, bolajonlik, sadoqat, sabr-qanoat degan tushunchalar aynan o‘zbek ayolining madaniyatidan darak beradi. Shu bilan birga, ayollarning ro‘mol o‘rashi, atlas yoki adras liboslarda ko‘rinishi ham madaniyatimizning bir ko‘rinishi hisoblanadi.

Madaniyat xalqning tarixiy xotirasi, urf-odatlari, an’analari, qadriyatlari, san’ati va turmush tarzini o‘zida mujassam etadi. Erkaklar va ayollar ushbu madaniy merosni yaratish, saqlash va keyingi avlodlarga yetkazishda muhim ishtirokchilardir. Buni faqatgina bir jins vakillariga xos deb hisoblash insonlarning individual xususiyatlarini cheklashi mumkin.

Ingliz tilidagi “Behind every successful man, there is a woman” iborasi muvaffaqiyatli erkakning ortida uni qo‘llab-quvvatlovchi ayol bo‘lishi mumkinligini ifodalaydi. Ushbu ibora ayolning hissasini e’tirof etsa-da, muvaffaqiyatni erkak markazida tasvirlaydi. Bu esa til birliklarining nafaqat ma’no, balki ijtimoiy qarashlarni ham ifodalashini ko‘rsatadi.

Rus tilidagi “Жена — шея, муж — голова” iborasi ham erkak va ayolning oiladagi vazifalariga oid an’anaviy tasavvurlarni aks ettiradi. Unda erkak boshqaruvchi, ayol esa yo‘naltiruvchi obraz sifatida talqin qilinadi. Bunday iboralarni tahlil qilish orqali turli madaniyatlarda oilaviy munosabatlar qanday tasvirlanishini anglash mumkin.

Kundalik muloqotda ham erkak va ayollarning nutqi haqida turli tasavvurlar mavjud. Ayrim qarashlarda erkaklar qisqa va aniq gapirishi, ayollar esa batafsilroq fikr bildirishi va shu bilan birgalikda o‘z nutqida iboralar, maqollar, -jon, -xon, oy kabi erkalash shakllaridan, o‘rgilay, girgitton, aylanay, qoqindiq kabi so‘zlardan foydalanishini ham ko‘rishimiz mumkin. Ayollar nutqining o‘ziga xosligini quyida O‘tkir Hoshimovning “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” asaridagi “Girgitton buvi”ning yapon nevarasi deb nomlangan hikoyasida ko‘rishimiz mumkin. Quyida ushbu hikoyadan ayollar nutqining o‘ziga xosligini ko‘rib o‘tamiz:

— Hay-hay, girgitton, tegma, tegma yong‘oqqa, — shunday deb ildam keldi-da, qo‘limdagi yong‘oqlarni olib, pastak devor osha naryoqqa uloqtira boshladi.

So‘ng tushuntirdi:

— Devorning naryog‘ida qo‘shnining ham yong‘oqlari bor. Sen tergan yong‘oq qo‘shnining daraxtidan to‘kilgan bo‘lishi mumkin. Birovning haqqini o‘zidan so‘ramasdan olsa gunoh bo‘ladi, girgitton.

Yuqoridagi misol orqali o‘zbek ayolining nutqida qo‘llangan “girgitton” so‘zi bir tarafdan tilimizda madaniyatimizning aks etishini ko‘rsatib bergan bo‘lsa, bir tarafdan halollik, birovning haqqini yemaslik kabi xislatlarning o‘zbek madaniyatini aks ettiruvchi vositalar ekanligini ko‘rsatib beradi.

Erkaklar nutqining o‘ziga xos ekanligini Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” asaridagi quyidagi nutqlar orqali ko‘rishimiz mumkin:

“Otasining bolasi-da,” — dedi Ziyo shohichi.

“— Mard yigit bo‘lsang, qo‘limni qo‘y!

— Oshiqma, qo‘yaman,” — dedi Otabek.

“...er ham xoting‘a muvofiq bo‘lsin.”

Keltirilgan jumlalarda erkaklar nutqining keskinligi, lo‘ndaligi va shu bilan birga aniqligi bilan ayollar nutqidan ajralib turadi. Shu bilan bir qatorda bu nutqlar orqali o‘zbek erkagiga xos bo‘lgan mardlik, g‘urur kabi xislatlarni ko‘rishimiz mumkin.

Biroq nutq uslubi faqat jins bilan belgilanmaydi. Insonning yoshi, ta’limi, kasbi, xarakteri, muloqot vaziyati va suhbatdoshi bilan munosabati ham uning nutqiga ta’sir ko‘rsatadi.

J. Lakoff “Til va ayolning undagi o‘rni” kitobida shunday yozadi: “O‘rta sinf ayollarining odob-axloqi ijtimoiy stereotiplarga asoslangan bo‘ladi. Jamiyatda odob-axloq qoidalari ko‘pincha aynan ayollarga singdiriladi va bu orqali ularda ayol odob-axloqi stereotiplariga moslik shakllantiriladi”. Ayollarni ijtimoiy guruh a’zosi sifatida

shakllantiruvchi turli omillar va xarakteristikalar feminlikni tashkil qiladi. Feminlik (ayolga xoslik) ayol genderi nutqiy xarakterini belgilab beradigan birlamchi omil hisoblanadi. Ayolning nutqi nutq adresatining kimligiga, uning yoshiga ham bog‘liq bo‘ladi. Tabiiyki, erkakdan bir necha o‘n yil katta yoshdagi ayol unga nisbatan itoatkorlik yoki uyatchanlikni bildirmaydi. Aksincha, yoshi katta ayolning nutqi undan yosh erkakka (yoki ayolga ham) qaratilganida, nutq didaktik-tarbiyaviy tusga ega bo‘lishi mumkin:

“– Bolam, bolaginam, yalqov bo‘lma. Ishlaringni bitirib kelgin.”

“– Xo‘p bo‘ladi, buvijon.”

Yuqoridagi misolda ayol nutqida, ayol genderi nutqiga xos bo‘lgan xushmuomalalik va erkalash-kichraytirish elementlari yaqqol ko‘rinsa-da, hech qanday itoatkorlik yoki uyatchanlik elementlari muloqotda mavlud emas. Aksincha, ayol o‘z nevarasiga xushmuomalalik prinsiplarini saqlagan holda pand-nasihat bermoqda. Bundan, ayolning amaldagi nutqiy xarakteristikalari nutq adresatining kim ekanligiga ham uzviy bog‘liq bo‘lishi kelib chiqadi.

XULOSA.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, erkak va ayolning jamiyat, madaniyat hamda tildagi o‘rnini lingvokulturologik jihatdan o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, gender munosabatlari xalqning milliy tafakkuri, tarixiy tajribasi va madaniy qadriyatlari bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi.

O‘zbek tilidagi maqollar, iboralar, adabiy matnlar va og‘zaki nutq birliklarida erkak va ayol obrazlari o‘ziga xos lingvokulturologik kodlar orqali ifodalanadi. Erkak ko‘proq faol, kuchli, rahbar sifatida tasvirlansa, ayol obrazi ko‘pincha mehribon, itoatkor va oilaga bog‘liq tarzda talqin qilinadi. Bu esa tilning jamiyatdagi gender rollarini mustahkamlashdagi yo‘lini ochib beradi. Ayollar va erkaklar nutqidagi farqlar asosida jinslarning psixologiyasi, tafakkuri o‘rtasidagi tafovutlar, jamiyatdagi gender o‘lchovlarini belgilovchi me’yorlar yotadi. Jamiyatda jinsga oid faoliyat ko‘rsatmalari, me'yorlarni belgilovchi ma'lum qoidalar, o‘ziga xosliklar, tafovutli holatlar paydo bo‘ladi va shunga

nisbatan ijtimoiy hayotda ayollarga va erkaklarga xos bo‘lgan ayricha tushunchalar, g‘oyalar tug‘iladi.

Tadqiqotning muhim jihatlari shundaki, erkak va ayol nutqidagi lingvokulturologik xususiyatlar ularning o‘zaro qarama-qarshiligini emas, balki jamiyatdagi munosabatlar, madaniy tajriba va qadriyatlarning o‘zaro ta'sirini namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Usmonova Sh. (2019) Lingvokulturologiya darslik.- Toshkent: O‘zbekiston, 191-200 b.

2. Babenko L.G. (2005) Til va nutqdagi gender jihatlar. - Voronej: 54-66 b.

3. Iskandarova Sh. (1993) O‘zbek nutq odatining muloqot shakllari: avtoreferati. - Samarqand, 19-26 b.

4. Musayeva F. (2019) O‘zbek tilida jins tushunchasining ifodalanishi: avtoreferat. - Toshkent, 24-32 b.

5. Yusupova G. (2023) Tilshunoslikda gender tadqiqining nazariy asoslari. - Toshkent: 18-37 b.

6. Ijtimoiy tarmoq sahifalari (google).

7. Abdulla Qodiriy “O‘tkan kunlar” romanidan.

8. O‘tkir Hoshimov “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” asaridan.